



**BALOG'AT YOSHIDAGI O'QUVCHI QIZLAR XARAKTER
XUSUSIYATLARI VA ULARNI TARBIYASIDAGI YO'L
QOYILADIGAN XATO VA KAMCHILIKLAR**

Nurniyozova Adiba Og'anayozovna

Buxoro viloyati Olot tuman 30-maktab psixologи

Annotatsiya: Maqolamizning asosiy mazmuni shundan iboratki, maktab o'quvchi qizlarining ijtimoiy faolligini ta'minlash, to'g'ri yo'nalish berish, o'zini o'zi o'qishga safarbar qilish, darslardan keyingi bo'sh vaqtlaridan unumli foydalantirish, biron natijaga erishish, jamiyatda o'z o'rnnini topgan shaxs sifatida shakllantirish, keyingi hayotga qadam qo'ydirish, ularni tarbiyasidagi yo'l qoyiladigan xato va kamchiliklari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: o'quvchi, vatanga sadoqat, jamiyat, harakatchan, tashabbuskorlik, fazilatlar, iroda, matonat, tirishqoqlik, mehnat, samara, faol, ijtimoiy, safarbar etish

KIRISH

Qizlar o'g'il bolalarga nisbatan ertaroq balog'atga etadi. Qizlarda bu davr aksari 12 — 14 yoshdan 16 — 18 yoshgacha, o'g'il bolalarda 13 — 15 yoshdan 16 — 20 yoshgacha davom etadi. Balog'atga yetish muddati o'smirning irsiy xususiyatlariga, sog'lig'iga, ovqatiga, shuningdek hayot tarzi (maishiy, ijtimoiy-iqtisodiy) va iqlim sharoitlariga bog'liq. Turli noxush omillar: og'ir kasalliklar, yolchib ovqatlanmaslik va boshqa odatda jismoniy va ruhiy rivojlanishning kechikishiga sabab bo'ladi. Nimjon, kasalmand bolalar sog'lom bolalarga nisbatan kechroq balog'atga etadi. Kech yoki erta Balog'atga yetish jinsiy bezlar, buyrak usti bezlari va gipofiz funktsiyasining buzilishiga aloqador bo'lishi mumkin. Balog'atga yetish davrida jinsiy instinct ancha tez shakllanadi. Qizlar hayz ko'radi, bolalarda ixtilom (pollyutsiya) kuzatiladi, shuningdek organizmda chuqur o'zgarishlar ro'y beradi: o'smirning bo'yi cho'zilib, ikkilamchi jinsiy belgilari paydo bo'ladi; o'g'il bolalarda soqol mo'ylov ko'rinish, ovozi do'rillab qoladi, qizlarning badani yumaloq



tortib, birinchi galda soni va dumbasida yog'to'planib boradi, sut bezlari kattalashib, chanoq suyaklari eniga kengayadi. Qonda jinsiy gormonlar ko'payib, bir jins ikkinchi jinsga ko'proq e'tibor bera boshlaydi. Balog'atga yetish davrida o'smirning psixikasi ham o'zgarib, nerv tizimining faoliyatida bir qator o'zgarishlar ro'y beradi.

Jinsiy balog'atga yetish davrida o'smir organizmida, uning ruhiyatida ro'y beradigan bunday tabiiy o'zgarishlardan xabardor bo'lish, ularning sabablari, kechishi haqida aniqroq ma'lumotlarga ega bo'lish «o'smirlikdek» og'ir, murakkab davrni jiddiy, salbiy asoratlarsiz kechishini ta'minlaydi. Buning uchun birinchi navbatda, shu o'smirlarning yaqin kishilari, ota-onasi, o'qituvchilari hozirgi kun o'smir psixologiyasi, psixofiziologiyasi masalalariga oid eng zamonaviy ilmiy ma'lumotlardan xabardor bo'lishi va o'smirlar bilan o'zaro munosabatlarda ulardan o'rinali foydalana olish malakalariga ega bo'lishlari lozim.

O'smirlik davrida kuzatiladigan xarakterli holatlardan biri jinsiy balog'atga yetishdir. Jinsiy balog'atga yetish qanday amalga oshadi? Jinsiy bezlar va u bilan bog'liq bo'lgan jinsiy belgilar bola hali ona qornidaligidayoq, paydo bo'ladi va bola tug'ilganidan boshlab, to o'smirlik davrigacha jinsiy rivojlanishni belgilab beradi. Jinsiy bezlar va ularning funksiyalari bolani rivojlanish jarayonining yaxlitligi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Ontogenetik taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida jinsiy rivojlanish keskin jadallahadi va fiziologik jinsiy yetuklik amalga oshadi. Jinsiy rivojlanishning tezlashishi jinsiy balog'atga yetish davri deb ataladi va u aksariyat hollarda, o'smirlik yoshiga to'g'ri keladi. Qiz bolalarning jinsiy balog'atga yetishishi o'g'il bolalarga qaraganda 1—2 yil ilgarilab ketadi.

Jinsiy balog'atga yetish nisbatan individual xarakterga ega bo'lib, u vaqtiga tempiga ko'ra, turli bolalarda turlicha kechishi mumkin. Jinsiy balog'atga yetish muddati va uning jadalligi turlicha bulib, u ko'plab omillarga: salomatlik holati, ovqatlanish xarakteri, iqlim, maishiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga bog'liq. Bunda nasliy xususiyatlar ham muhim rol o'ynaydi. Noqulay maishiy sharoitlar, yetarlicha va to'g'ri ovqatlanmaslik, ularda zarur vitaminlarning yetishmasligi, og'ir yoki qaytalanuvchan xastaliklar jinsiy balog'atga yetish davrini kechiktirib yuborishga olib kelishi mumkin. Odatda, katta shaharlarda o'smirlarning jinsiy balog'atga yetishishi



qishloq joylardagiga qaraganda, ertaroq amalga oshadi. Jinsiy balog‘atga yetish davrida gipofiz va qalqonsimon bezlar ajratib chiqaradigan gormonlar ta’siri ostida o‘sirda bo‘y o‘sishi, ikkilamchi jin-siy belgilarning rivojlanishi, ovozning o‘zgarishi, muskul kuchlarining ortishi, tananing ayrim qismlarini jun bosishi, ko‘krak bezlarining rivojlanishi kabilar kuzatiladi. Jinsiy balog‘atga yetish bosqichlari. Jinsiy balog‘atga yetish tekis kechadigan jarayon emas. U ma’lum bir bosqichlarga bo‘linadi va ularning har biri ichki sekretsiya bezlarining va butun organizmning o‘ziga xos funksiyalari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichlar birlamchi va ikkilamchi jinsiy belgilar majmui bo‘yicha belgilanadi.

Bugungi zamонавиylashuv jihatidan rivojlanayotgan davlatda xotin-qizlarga ayniqsa, o‘sib kelayotgan yosh avlod o‘quvchi qizlariga globallashuvning tobora yuqorilashayotgan tizimiga ko‘ra tarbiyaga alohida yangicha yondashuvlar olib kirgan holda ijobiy fazilatlarni shakllantirishda, hunar o‘rgatishda ota-onasini, oila a’zolari va mahalla bilan bir qatorda maktablar ham samarali ta’sirini o‘tkazmoqda. Chunonch, ijtimoiy faoliyatini shakllantirishda keng ko‘lamli chora-tadbirlar olib borilib, ko‘zlanga maqsadlarga o‘rinma-o‘rin erishib kelishilmoqda. Jumladan, maktablarda yo‘lga qo‘yilgan to‘garaklar, yutuqli bellashuvlar, ko‘rik-tadbirlar, kreativlikni shakllantiruvchi yig‘ilishlar o‘tkazilib, maktab reytingini ko‘tarib bermoqda. Bu kabi foydali ishlar ham maktab reytingi uchun, ham o‘quvchi qizlarining keyingi hayoti uchun juda katta hissa qo‘shmoqda. Bundan tashqari Respublikamizda qizlarni sog‘lom va barkamol avlodni shakllantirish, XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan har tomonlama yetuk shaxs sifatida voyaga yetkazish dolzarb mavzuga aylangan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev: «Ma’lumki, har qanday mustaqil davlat mustahkam ma’naviy poydevorga ega bo‘lgandagina yuksak taraqqiyotga erisha oladi. Shu maqsadda biz «Uzluksiz ma’naviy tarbiya Kontseptsiyasi» doirasida umumta’lim maktablarida birinchi marta «Tarbiya» fanini joriy etmoqdamiz», deya ta’kidladi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda amalga oshiralayotgan islohotlar hamda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash



borasida olib borilayotgan chora-tadbirlarning muhim ahamiyati orqali vazifalarni amalaga oshirishda tariximiz va bugungi kunimizdagi holatini e'tiborga olgan holda o'rganish, tahlil qilish hamda kerakli taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega.

O'quvchi qizlarni ijtimoiy faolligini oshirish uchun albatta ularni rag'batlantirish maqsadga muvofiq. Rag'batlantirishni 2 asosiy turi bor. Bular:

- 1) Moddiy
- 2) Ma'naviy

Moddiy rag'banlantirishga faollikka erishgan o'quvchi qizlarga qimmatbaho sovg'alar, pul mukofotlari va hakoza hisoblanadi. Ma'naviy rag'batlantirishga diplom, faxriy yorliqlar, tashakkurnoma va boshqalar. Hozirga kunda ma'naviy mukofotlarning turlari va imtiyozlari ko'paygan. Bunga misol qilib, "Zulfiyaxonim" nomidagi davlat mukofoti, "To'maris qizlari" sport mukofoti va olimpiadalardagi mukofotlarni olsag bo'ladi.

Ya'ngilanayotgan O'zbekistonda yoshlar, ayniqsa xotin-qizlarning o'rni beqiyos. Yangi avlodni yetishtirib, tarbiyalash ayollar zimmasida, shunday ekan maktab yoshidagi qizlarga alohida e'tibor zarur. Jumladan, ularning sog'liqlari, yashash tarzi, qiziqishlari, kelajakda jamiyatda o'z o'rnni topish uchun muhim omillar hisoblanadi. Hozirda davlat boshqaruva organlarida, tibbiyotda, yuridik sohada, tadbirkorlikda peshqadam bo'lib kelayotgan xotin-qizlarni uchratish mumkun. Yurtimizda akademik, professor, fan doktorli bo'lgan ayollar ko'p. Maktab o'quvchi qizlariga ular bilan uchrashuv, yaqindan suhbatlar tashkil qilish qizlarni ijtimoiy faolligini yanada oshiradi. Ularda intiluvchanlikni shakllantiradi. O'quvchi qizlar bizning faxrimiz, yurtimiz kelajagi!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkatmirziyeevning-oliy-25-01-2020>.
2. Xabibullayevna, Y. D. (2022). O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiysiyo siy faolligini oshirishda amalga oshirilayotgan islohatlarning muhim ahamiyati'.



Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot» jurnali.

3. «Uzluksiz ma’naviy tarbiya Kontseptsiyasi». -T.: 2019.-B. 12.
4. Bakiyeva M.K. O‘quvchi qizlarda ijtimoiy faol shaxs sifatlarini shakllantirishda oilaning ta’siri // «O‘zbekistonda ilm-fan va ta’lim» mavzusidagi Respublika ilmiy konferentsiya materiallari. Qo‘qon, 2020.
5. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O‘quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o‘qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.
6. Khaydarov S, A. (2023). Using technologies in teaching social sciences. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ), (pp. 305-309). 11(9).
7. Хайдаров, С. (2023). Pedagogik faoliyatda o’qituvchi o’zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67.
8. Хайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.
9. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).